



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2024
2/1-сон



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2024 йил, 2/1-сон

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎЗР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:
и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

**Бош муҳаррир
ўринбосари:**
и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:
и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:
и.ф.д. Ф.А.Сафаров
катта ўқит. Ш.З.Ўразов

Техник муҳаррир:
и.ф.н., доц. А.Н.Холиқулов

Корректор:
PhD С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:
ассис. Х.Н.Очилова

1 йилда 4 мартаба
чоп этилади.

Ўзбекистон ҳудудида
тарқатилади.

Тахририят манзили:
140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(66)233-17-88

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори в.б., DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти в.б., DSc

МУНДАРИЖА :

НАЗАРИЯ ВА МЕТОДОЛОГИЯ	
Мурод Муҳаммедович Муҳаммедов, Мамаюнус Қаршибаевич Пардаев “Хизмат” тушунчасининг иқтисодий кагегория сифатида назарий таҳлили	5
Ибодулла Ҳасанович Ибрагимов, Рустам Алижонович Мусабоев Истеъмолчилик хулқининг трансформацион хусусиятлари	11
Аскар Хайдарович Джумаев Жаҳон хўжалигида иқтисодий тизимларнинг қиёсланишининг услубий жиҳатлари	16
Shahobiddin Ziyadullayevich O‘rozov Amir Temur ijtimoiy faoliyatida ratsionallik yondashuvi	20
Lola Nazarovna Xalikova Ijtimoiy himoyalashga oid nazariy qarashlar	24
РАҚАМЛИ ВА ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТ	
Боҳодир Ибрагимович Исроилов, Бобуршоҳ Боҳодир ўғли Ибрагимов Рақамли иқтисодиёт шароитида солиқ ҳуқуқбузарликларини таснифлашнинг ўзига хос хусусиятлари	28
Қулмамат Джонузоқович Мирзаев, Гиёс Турабекович Юлдашев Республикамизда деҳқончиликни инновацион асосда ривожлантиришни асосий тараққиёт тенденциялари	32
Жунайдулло Садиевич Файзиев Умумий овқатланиш корхоналарини дастурий – аппарат комплексларидан фойдаланиб автоматлаштириш	37
САНОАТ ВА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИ	
Раҳматулла Хидирович Эргашев Мева-сабзавотчилик маҳсулотлари кооперацияси ва унинг самарадорлигини ошириш	42
ХИЗМАТ КўРСАТИШ ВА СЕРВИС	
Зариф Юсупович Аминов Инсон иқтисодий хавфсизлигига ишчи кучи сифатининг таъсири	49
Zubayda Ubaydullayevna Shodmanova Xizmat ko‘rsatish sohasidagi korxonalarining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashdagi kamchilik va muammolar	53
Bekjon Shukurillayevich Musayev Oliy ta’lim xizmatlarini raqamli texnologiyalar asosida targ‘ib qilishning uslubiy asoslari	57
Sadoqat Qudratovna Bultakova Xizmat ko‘rsatish sohasi va uning O‘zbekistonda o‘shish dinamikasi	63
Luiza Komilovna Xaydarova Xizmat ko‘rsatish korxonalarida innovatsiyalarni tatbiq etish zaruriyati va omillarini tahlili	67
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Akram Abduraxmonovich Azizqulov Xatirchi tumanida ziyorat turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	74

Shahobiddin Ziyadullayevich O‘rozov – SamISI, “Ijtimoiy fanlar” kafedrasida katta o‘qituvchisi

AMIR TEMUR IJTIMOY FAOLIYATIDA RATSIONALLIK YONDASHUVI

Annotatsiya: ushbu maqolada tadqiqotning maqsadi Sohibqiron Amir Temurning ijtimoiy faoliyatida ratsionallikka asoslangan yondashuvning o‘rnini, uning o‘ziga xosligi va hozirgi islohotlar davridagi ahamiyatini ochib berishga harakat qilingan.

Kalit so‘zlar: Sohibqiron, Amir Temur, ijtimoiy faoliyat, ratsionallik, xarizma, liderlik, Markaziy Osiyo, siyosat, siyosiy beqarorlik, yetakchilik, davlat, hokimiyat, vazir, askar, Zafarnoma, Samarqand, barqarorlik, taraqqiyot.

Kirish. Ma’lumki, ming yillar davomida insoniyatning buyuk daholari tarixiy taraqqiyotning ichki mantig‘ini tushunishga va shu asosda insoniyatning iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy rivojlanishi muammolarini ijobiy hal etib, jamiyatni boshqarishning eng maqbul, adolatli usullarini joriy qilishga intildilar. Sohibqiron mamlakat taxtiga o‘tirgan birinchi kunlaridanoq, ya’ni 1370-yil aprel oyidanoq davlat ishlarini qonuniy hujjatlar asosida yuritishga harakat qiladi. Agar Amir Temur o‘z davlatini qonunlar asosida barpo etmasa, bunday davlatning nufuzi, salohiyati, obro‘sigacha yetar va uning hukmdori ham yuqori darajada tan olinmasdi. Amir Temur va temuriylar davri O‘rta Osiyo madaniyati tarixida alohida o‘rin tutadi. Bu davrdagi madaniy yutuqlar umumbashariy sivilizatsiya darajasida bo‘lgan. Madaniyat tarixidagi ushbu mumtoz davrda o‘zbek madaniyatining shakllanishi bu davrdagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot bilan bog‘liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. U o‘z qarashlarida savdoga, ishbilarmonlikka katta yo‘l ochib, ularga imtiyozlar yaratib bergan. Lekin u halol, haqiqiy mehnatga asoslangan tijoratni quvvatlagan, hatto bunday tadbirkorlardan uch yilgacha soliq olmagan. Temur faqatgina davlat rahbari sifatidagina emas, balki bir mutafakkir sifatida ham o‘z davrining ilg‘or siyosiy qarashlari mukammal tizimini yaratdi. Chunki u biror g‘oyani o‘z fikrida tahlil qilganida masalaning hamma tomonini hisobga olar edi. Unda o‘zgarar fikrini eshita olish va qabul qila olish qobiliyati bor edi[1:27].

Amir Temurning siyosiy tamoyili markazida inson turadi. Temur o‘z davrida saltanat manfaatini xalq manfaatiga bo‘ysundira olgan davlat rahbari edi.

Temur siyosiy qarashlari tizimining yana bir muhim tomoni shundan iboratki, u har bir siyosiy masalani hal etishdan oldin shu sohaning bilimdon odamlari, olimlari bilan maslahatlashib, so‘ngra qaror qilar edi. Uning olimlar bilan qiladigan maslahatlari turli shakl va darajada bo‘lardir.

Shuni ham aytib o‘tish kerakki, X-XV asr mutafakkirlari[2:160-161]. o‘z ijodlari va g‘oyaviy qarashlarida adolatli va ma’rifatparvar shohning eng oliy sifati qilib, birlari adolatni ko‘rsatsalar, boshqalari aqlni, uchinchi toifadagilar esa - axloqiy sifatlarni ko‘rsatganlar. Shunisi qiziqarliki, agar ular o‘zlarining «Ideal davlat» nomli g‘oyaviy xayolotini nazariy jihatdan ta’riflagan bo‘lsalar, XIV asrga kelib, Amir Temur uni amalda qo‘llay oldi va o‘zida bu xislat va xususiyatlarni mujassamlashtirgan adolatli hukmdor sifatida maydonga chiqdi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada retrospektiv va tizimli tahlil, vorisiylik, analiz va sintez, qiyosiy o‘rganish, obyektivlik, tarixiylik va mantiqiylik birligi kabi ilmiy usullardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Dunyoda ro‘y berayotgan globallashuv jarayonlarining shiddat bilan o‘sishi jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotiga o‘zining konstruktiv va destruktiv ta’sirini o‘tkazmoqda. Bularning barchasi har bir mintaqada yashovchi shaxs va jamiyat a’zolarida milliy davlatchilik asoslarini o‘rganish va ma’naviy o‘zlikni anglash darajalarini ifodalovchi miqdoriy va sifatiy ko‘rsatkichlarda yaqqol ko‘zga tashlanib turibdi.

Ilm va madaniyatga bunday munosabatni Sohibqiron umrining oxirigacha saqlab qoldi. Bu yo‘ldan uning avlodlari ham yurdilar. Natijada temuriylar zamonida ko‘plab madrasalar, kutubxonalar, maktablar barpo etildi. Ularda o‘qish va o‘qitish uchun dunyoning turli burchaklaridan yetuk olimlar jalb qilindi. Chingiziylar davrida ta‘qibu siquvlar, siyosiy ostin-ustunliklar natijasida ilm va madaniyat nuqtayi nazaridan huvillab qolgan Turkiston Amir Temur zamoniga kelib yana jonlanish imkonini qo‘lga kiritadi. Bunda u, eng avvalo, mahalliy ilm-fan va madaniyat vakillariga suyangani aniq, ya‘ni ilmu madaniyat rivoji uchun shart-sharoit yaratgan, siyosiy barqarorlikka erishgan. Natijada turli mamlakatlardagi turkistonliklar o‘z yurtlariga qayta boshlaganlar. Ular orasida qachonlardir ota-bobolari Shimoliy Hindiston, arab o‘lkalari va boshqa yurtlarga borib o‘rnashgan avlodlar ham bo‘lganiga shubha qilmasa ham bo‘ladi.

Bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Sharafiddin Ali Yazdiyning: «Sohibqiron har yerdakim, imoratqa qobil yer ko‘rsa erdi, ul yerda albatta bir imorat solur erdi...» [3:851], – degan so‘zlari zinhor mubolag‘a emas.

XIV-XV asr oxirlarida Movarounnahr ko‘p mamlakatlar bilan ijtimoiy-iqtisodiy, ba‘zan siyosiy va harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan karvon yo‘llari bilan bog‘langan edi. Bu yo‘llar xalq turmush tarzi, diniy, iqtisodiy, ma‘naviy va moddiy madaniyati jihatidan bir-biridan farqlanuvchi mamlakatlarning o‘zaro aloqasini rivojlantirishga imkon yaratdi. Karvon yo‘llari savdo, diplomatik munosabatlar borasidagi amaliy vazifasidan tashqari, ayni vaqtda mamlakatlar va xalqlarning o‘zaro iqtisodiy va madaniy aloqalarini mustahkamlashga ham xizmat qildi. Aytish mumkinki, bu davrda Buyuk Ipak yo‘li tiklanib, mintaqalarning madaniy taraqqiyoti uchun xizmat qildi.

Venger olimi, professor Herman Vamberi Temur haqida shunday yozgan: «Temur Osiyoning hamma qismidan hadsiz-hisobsiz xazina va boylik yig‘di, lekin ularni xasis odamlar kabi saqlamadi. Buni, birinchidan, uning saroyining boy va hashamatliligi, ikkinchidan esa ham o‘z rezidensiyasini, ham o‘z shahrini bezab turuvchi g‘oyat ulkan va muhtasham binolar qurdirgani isbotlaydi. Shuning uchun ham Temurni Chingizxon bilan bir qatorga qo‘yib, uni yovuz, o‘zboshimcha, mustabid hokim deb atovchilarning fikrlari ikki tomonlama xatodir. U, avvalo, o‘zining g‘olibona qurolini zamonasining odatiga ko‘ra ishga solgan hokim edi. Uning dushmanlari ta‘kidlagan qabih ishlari va vayronagarchiliklari ham, hatto biror jinoyat uchun olingan o‘ch edi, xolos» [4:217].

Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrda ro‘y bergan madaniy yuksaklik butun musulmon Sharqidagina emas, Yevropa mamlakatlarini ham hayratga soldi. Bu yuksaklik Markaziy Osiyoning so‘nggi madaniy-ma‘naviy rivojinigina belgilab bermay, qo‘shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta ta‘sir ko‘rsatdi. XIV-XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug‘ullangan yirik olimlar paydo bo‘ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir - Sa‘diddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayyid Jurjoniy nomlari bilan bog‘liqdir. Bulardan tashqari, Samarqandda o‘sha davrda Abdujabbor Xorazmiy, Shamsiddin Munshiy, Abdulla Lison, Badriddin Ahmad, Nu‘moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Xokiy va boshqa olimlar yashab ijod etganlar. O‘z davrining ilg‘or ijtimoiy va axloqiy fikrlari badiiy adabiyotda, tasavvuf she‘riyatida, nazm va nasrda, g‘azal va ruboiylarda mufassal bayon qilina boshlandi. Sakkokiy, Jomiy, Lutfiy, Navoiy, Binoiy, Qosim Anvor va boshqalarning badiiy asarlari boy falsafiy va axloqiy mazmunga egadir.

Amir Temur qurgan davlat, avvalo, o‘zida siyosiy tizimning eng yaxshi shaklini mujassamlashtirishi lozim edi. Chunki uning nazarida ratsional boshqaruv ma‘muriyatini tashkil qilmay va uning faoliyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘ymay turib, jamiyatni boshqarish, uning hayotiga islomiy qadriyatlarni singdirish, xizmatni joriy qilish, to‘ra va tuzukni mustahkam tutish mumkin emasdi. O‘zigacha bo‘lgan o‘zbek davlatchiligidan farq qiladigan markazlashgan buyuk davlat tizimini yaratdi. U davlat rahbarining qattiqqo‘l, tadbirkor, nihoyatda adolatli, lekin rahmdil,

insonparvar, halol, pok bo‘lishini ko‘rsatib, hayotda adovat emas, balki adolat yengadi, deb ko‘rsatdi.

“Temur tuzuklari”da Amir Temurga xos bo‘lgan ratsionallikka asoslangan, davlatni idora qilish usuli bilan yaqindan tanishish mumkin. Jumladan, unda “Menga yomonlik qilib, boshim uzra shamshir ko‘tarib, ishingga ko‘p ziyon yetkazganlarni ham iltijo bilan tavba-tazarru qilib kelgach, hurmatlab yomon qilmishlarini xotiramdan o‘chirdim”, deganligining o‘zi fikrimizning yorqin isbotidir. Ushbu asarda, bunday misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Zero, bugungi kunda “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini amalga oshirishda “Temur tuzuklari” muhim nazariy manbalardan biri sifatida katta ahamiyatga egadir. Qisqa qilib aytganda Amir Temur sharqona demokratiyaga, qonunga, urf-odatlariga asoslangan buyuk davlat barpo qilib, tarixda o‘chmas iz qoldirdi.

Temur tuzuklari Amir Temur rahbarligi ostida, uning devonida, turkiy tilda yaratilgan o‘zining muhim ratsional qirralariga ega bo‘lgan haqiqiy, tarixiy, siyosiy yuridik hujjatdir. Undagi normalarni hozirgi zamon huquq tarmoqlariga qiyoslab tahlil etsak, konstitutsiyaviy hujjat ekanligi yaqqol ko‘zga tashlanadi. Tuzuklar turkiy xalqlar davlat boshqaruviga oid nazariy manbalarning yuksak cho‘qqisi edi. Davlatda huquqiy munosabatlar nuqtayi nazaridan olib qaralsa, u musulmon huquqidan keyingi asosiy manba hisoblangan.

Amir Temurning shaxs, jamiyat, davlat munosabatlaridagi bunday adolatli yondashuvi shaxs erkinliklari va uning davlat ishlarida ishtiroki darajasini aniq ifodalaganki, bunda har qanday masalaning adolatli hal etilishida shaxsning ijtimoiy holatiga bog‘liqligini nazarda tutgan. Har qanday odam mening adolat devonimdan panoh topgan ekan, gunohi bo‘lsa ham, uni kechirsinlar, – deyiladi bu haqda «Tuzuklar»da, – ikkinchi, uchinchi marta yana gunoh yo‘liga kirsas, u holda gunohiga yarasha jazolasinlar»[5:95].

Demak, Amir Temur davrida bilim olish qonun darajasida belgilab qo‘yilgan, bu sohada ma‘lum va qat‘iy tartiblar, yo‘l-yo‘riqlar mavjud bo‘lgan. Ahamiyatli va qiziqarli tomoni shundaki, har el va har shaharda Adolat amiri tayin etilgan. Sipoh va raiyat orasidagi urf-odatlariga oid nizoli ishlar haqida ma‘lumot berib turish ularning asosiy vazifasi hisoblangan. Davlat ishlaridagi bunday tartib, qonun buzilishining oldini olishda juda qo‘l kelgan, boshqa jihati, mamlakatda, boshboshdoqlikning boshlanib ketishi va avj olishiga yo‘l qo‘ymagan, shu jihatdan yuqorida aytgan fikrlarimizni davom ettiradigan bo‘lsak, har qanday jamiyatning shaxslardan tashkil topishi tabiiy jarayon ekanligini, kishilarning ma‘lum huquq va erkinliklariga ega bo‘lishlari, shu huquq va erkinliklarni amalga oshirish mexanizmi - davlatni boshqarishda faolliklarini e‘tiborda tutmoqligimiz lozim. Albatta, bu yerda yana o‘rta asrlarga xos bo‘lgan yakka hukmronlik boshqaruv tizimida oliy hukmdorning o‘rnini esdan chiqarmaslik lozim, zero, uning har bir farmoyishi amalda qonun kuchini oladi.

Amir Temur o‘z «Tuzuklar»ini ishlab chiqib, hayotga tatbiq etar ekan, eng avvalo, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarida qonunni ustuvor yo‘lga qo‘yishni mo‘ljallagan va o‘z navbatida, davlat rahbari oldida turgan mas‘uliyat ham unutilmagan; davlat rahbari birinchi galda adolatli bo‘lishi, har bir ishda xolis va qat‘iy fikr yuritishi, qiziqqonlik qilmasligi lozim sanalgan. Amir Temur tuzuklarida belgilangan qoidalar nafaqat jamiyatning oliy tabaqasiga, balki quyi idoralarga ham taalluqli bo‘lgan. Bunda fuqaro manfaati oldingi o‘ringa olib chiqilgan.

Amir Temur nima uchun qonun-qoidalarga, jumladan, raiyat, aholining ijtimoiy ahvoriga bunchalik jiddiy qaragan? «Negaki, raiyatni xonavayron qilish, – deyiladi, «Tuzuklar»da, – (davlat) xazinasi kambag‘allashuviga olib keladi..., o‘z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib boradi»[5:143].

Bu davlatlar va zamonlar uchun xos xislat, darvoqe, iqtisodiy jihatdan qudratli bo‘lmagan davlat uzoq turolmaydi, tanazzulga uchraydi, davlat qudrati va mustahkamligining eng muhim shartlari – adolatli qonunlar, raiyat ahlining ijtimoiy turmush darajasi va uning yuqori ko‘tarinki ruhiga ko‘p jihatdan bog‘liqligini yaxshi bilamiz. Zero, Amir Temur dahosining qirralaridan biri

uning mazkur abadiy haqiqatni anglay bilganligi va amalda namoyon qila olganligi bilan o‘lchanadi. Ma’lumki, olam bilan mutanosiblik va shaxsiy erkinlik o‘rtasidagi ziddiyatni bartaraf etishga urinish, turli fan vakillarini o‘ylantirgan, jumladan: «Davlat bu – qonunlar jamiyati, zero odamlar boylikni yaratish hamda qobiliyatda teng bo‘lishi mumkin emas, biroq qonun oldida barcha teng bo‘lmog‘i lozim», degan edi Sitseron[6:197]. Ko‘ramizki, Amir Temur davlati shaklidan qat’i nazar, adolat mezonlari, to‘ra va tuzuklar asosida qurilgan, raiyat birligi va jipsligi tamoyili, odatiy hol hisoblangan, xalqning siyosiy hamda huquqiy kuch-qudrat ekanligi haqidagi g‘oyalar bugungi xalq hokimiyatchiligi tamoyillariga asos bo‘la oladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, Amir Temur davlatchiligi yuksak nazariy qoidalarga asoslangan holda boshqarilgan bo‘lib, undagi mezonlar amaliyotdan olingan tajribalar orqali shakllangan. U o‘z davlatini dunyo miqyosida tan olinishini istab dastavval davrning eng yuksak bilimiga asoslangan harbiy va davlatchilik sohasida muhim islohotlarni amalga oshira oldi, zamonasiga mos davlat boshqaruv tizimlarini ishlab chiqdi. Buning natijasida O‘rta Osiyoda qariyb ikki asrga yaqin mo‘g‘ullarning beboshligi natijasida bosqinchilik, zo‘ravonlik, adolatsizlik va vayronagarchilik hukm surgan feodal tarqoqligiga barham berildi, o‘lka xalqlarining o‘z huquqlari, mustaqilligi qayta tiklandi. Uning buyuk ishlari va salobatli davlati o‘z davrida nafaqat Sharqda balki, dunyo, ayniqsa Yevropada ham tan olingan edi.

Yuqoridagi tahlillar va dalillar asosida Amir Temur saltanatida umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan, siyosiy tizimda yangicha, mustahkam, o‘z davrida mavjud bo‘lgan turli boshqaruv an‘analarining maqbul jihatlari o‘zida mujassamlashtirgan, hamda ularga muhim ijobiy o‘zgartirishlar kiritilgan davlatchilik asoslari barpo etilgan, degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.Муқимов З. Амир Темур тузуклари (тарихий-ҳуқуқий тадқиқот). Иккинчи тўлдирилган нашри. – С.: СамДУ, 2008. –Б.27.
- 2.Форобий А.Н. Фозил одамлар шаҳри. – Т.: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 1993. –Б.160-161.
- 3.Яздий Ш.А. Зафарнома. –Т.: “Шарқ”, 1997. –Б.851.
- 4.Вамбери Г. История Бухары. Перевод А.И. Павловского. т.1, –СПб.: Изд.Я.А. Исакова, 1873. –С.217.
- 5.Темур тузуклари. –Т.: «O‘zbekiston», 2013. –Б.95.
- 6.Цицерон. Республика. – М.: Научно-издательский центр «Ладомир» – «Наука», 1994. –С.197.

Ш.Урозов	Sh.Urozov
Рационализм в общественной деятельности Амира Тимура	Rationalism in the social activities of Amir Timur
Аннотация: цель данной статьи – выявить место подхода, основанного на рациональности, в общественной деятельности Сахибкирана Амира Тимура, его уникальность и значение в современный период реформ.	Abstract: the purpose of this article is to identify the place of an approach based on rationality in the social activities of Sahibkiran Amir Timur, its uniqueness and significance in the modern period of reforms.
Ключевые слова: Сахибкиран, Амир Тимур, общественная активность, рациональность, харизма, лидерство, Центральная Азия, политика, политическая нестабильность, лидерство, государство, власть, министр, солдат, Зафарнаме, Самарканд, стабильность, развитие.	Keywords: Sahibkiran, Amir Timur, social activity, rationality, charisma, leadership, Central Asia, politics, political instability, leadership, state, power, minister, soldier, Zafarname, Samarkand, stability, development.

ISSN 2091-5187

❧ “СЕРВИС” ❧

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

22.05.2024 йилда теришга берилди. 7.06.2024 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табоғи 15,76. Ҳисоб-нашриёт
табоғи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0076А/24.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2024.